

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA KASB-HUNAR BILAN BOG’LIQ BO’LGAN TOPONIMLAR

Saidova Nozima

Qarshi Davlat Universiteti Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqola kasb-hunar nomlariga joy nomlarining ta’siri va ular orasidagi bog’liqlikni tahlil qilishga bag’ishlangan. Maqolada joy nomlarining mahalliy madaniyat, tarixiy jarayonlar va mintaqaviy xususiyatlarini aks ettiruvchi vosita sifatidagi roli ko’rib chiqiladi. Shuningdek, kasb-hunar nomlari bilan bog’liq toponimlarning shakllanish sabablari va ularning zamonaviy hayotdagi o’rni yoritiladi.*

Kalit so’zlar: *kasb-hunar nomlari, toponimika, joy nomlari, madaniy meros, tarixiy jarayonlar.*

Abstract: *This article is dedicated to analyzing the influence of place names on occupational names and the connection between them. The article examines the role of place names as a reflection of local culture, historical processes, and regional characteristics. Additionally, it highlights the reasons behind the formation of toponyms related to occupational names and their significance in modern life.*

Keywords: *occupational terms, toponymy, place names, cultural heritage, historical processes.*

Joy nomlari, odamlarning o’zlarining yashash joylari va atrof muhitga bo’lgan munosabatini aks ettiruvchi, qadimdan mavjud bo’lgan ijtimoiy va madaniy elementlardir. Ular nafaqat geografik hududni belgilashda, balki shu hududda yashovchi odamlarning kasbiy faoliyati, iqtisodiy resurslar va ijtimoiy tizimini ham o’zida ifodalaydi. Joy nomlari tarixiy rivojlanish va madaniy o’zgarishlarning izlarini saqlab, bugungi kunda ham o’tmishning ajralmas qismi sifatida ahamiyatli. Bu nomlar ko’pincha ularni tashkil etgan xalqning kasb-hunarlariga, faoliyatining asosiy sohalariga bog’liq bo’lgan holda shakllanadi.

Dunyoning turli mintaqalarida joy nomlari o’ziga xos tarixiy va madaniy kontekstga ega. O’zbekistonda joy nomlari asosan qishloq xo’jaligi va hunarmandchilik bilan bog’liq bo’lib, xalqning asrlar davomida yer bilan chambarchas bog’langanligini aks ettiradi. Ingliz tilida so’zlashuvchi davlatlarda esa joy nomlari ko’pincha sanoat, dengizchilik, konchilik kabi faoliyat turlariga bog’langan. Ular, shuningdek, o’sha joylarning tabiiy resurslaridan qanday foydalanish va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini ko’rsatadi.

Joy nomlarining kasb-hunarlariga bog’liqligi orqali biz nafaqat ma’lum bir hududning iqtisodiy ahvolini, balki uning madaniyatini, ijtimoiy tuzilishini ham o’rganishimiz mumkin. Ushbu maqolada O’zbekiston va ingliz tilida so’zlashuvchi davlatlarda joy nomlarining kelib chiqishiga va kasb-hunarlar bilan bog’liq bo’lishiga

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

doir misollar keltiriladi, shuningdek, ularning tarixiy va iqtisodiy rivojlanishdagi o’rni tahlil qilinadi.

Qo’yliq - Toshkent shahrining Sharqiy qismida joylashgan. “Qo’yliq” so’zi “qo’y” va “liq” so’zlaridan kelib chiqqan bo’lib, bu yer tarixda chorvachilik bilan shug’ullanilgan hudud bo’lgan. Qo’y boqiladigan yaylovlarga yaqinligi sababli bu nom berilgan. Bugungi kunda bu joy bozori bilan mashhur. [1:98-104]

Novvoyobod - Qarshi shahriga yaqin joyda joylashgan. Ushbu hududda novvoylar ko’p bo’lganligi va non pishirish bilan mashhur bo’lganligi uchun bu nom berilgan. Qadimdan Qarshi hududi O’zbekistonning asosiy bug’doy yetishtiruvchi mintaqalaridan biri bo’lib kelgan.[3:120-125]

Kulollik - Rishton tumani, Farg’ona vodiysi. “Kulol” so’zi spool buyumlar yasash bilan shug’ullanuvchi hunarmandlarni bildiradi. Rishton qadimdan spool buyumlari va kulolchilik san’ati bilan mashhur bo’lgan, shuning uchun bu nom berilgan.[4:220-223]

Dehqonobod - bu O’zbekistonning Qashqadaryo viloyatida joylashgan tuman bo’lib, uning nomi hududda asosan dehqonchilik bilan shug’ullanish tarixi bilan bog’liq. Dehqonobod o’zining qishloq xo’jaligi va tabiiy resurslari bilan tanilgan, uning tarixi va nomlanishi mahalliy aholi faoliyati bilan chambarchas bog’liq.[2:75-80]

Misgaron - Buxoro viloyati, G’ijduvon tumani. “Misgar” so’zi mis idishlar yasash bilan shug’ullanuvchi ustalarni bildiradi. G’ijduvon qadimdan hunarmandchilik markazlaridan biri bo’lib, bu yerda mis buyumlar yasovchilar ko’p bo’lgan. Shu sababli hududga “Misgaron” deb nom berilgan.[5:45-50]

Temirchi - Samarqand viloyati, Urgut tumani. Ushbu hududda qadimdan temirchilar faoliyat yuritgan. Ular asbob-uskunalar, qurol-yarog’ va uy-ro’zg’or buyumlari yasashda yetuk hunarmandlar sifatida tanilgan.

Baliqchi - Andijon viloyati, Xonobod shahri yaqinida joylangan. Bu joy Farg’ona vodiysidagi suv havzalari yaqinida joylashgan bo’lib, baliqchilik bilan shug’ullangan aholiga oid. Bu nom baliq ovlashning keng tarqalganligini ko’rsatadi.

Qorabosh - Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani yaqinida joylashgan. “Qorabosh” atamasi qoramol boqish bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Ushbu hududda chorvachilik asosiy tarmoqlardan biri bo’lgan, shuning uchun hududga ushbu nom berilgan.

O’zbekiston kabi, ingliz tilida so’zlashuvchi davlatlarda ham joy nomlari tarixiy, madaniy yoki geografik ahamiyatga ega bo’ladi. Bu nomlar hududning o’tmishi, an’anaviy kasblari yoki atrofdagi landshaftni aks ettiradi.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Bu misollarni tahlil qilish orqali, joy nomlarining nafaqat hududning tabiiy xususiyatlarini, balki o’sha hududda yashagan odamlarning mehnat faoliyatlari va an’analarini qanday aks ettirganini tushunishimiz mumkin.

Bakersfield - Kaliforniyaning markaziy qismi, AQSh. Nom polkovnik Tomas Beyker sharafiga berilgan. U XIX asrda ushbu hududda dehqonchilik bilan shug’ullangan. Shahar nomi qisman “baker” (nonvoy) kasbini ham aks ettiradi.[6:150-155]

Smithfield - Markaziy London, Angliya. “Smithfield” nomi qadimgi inglizcha “smethe feld” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “silliq dalalar” degan ma’noni anglatadi. Keyinchalik bu nom hududda ishlagan temirchilar(blacksmiths) bilan bog’langa, chunki u yerda chorva bozori joylashgan edi.[7:32-35]

Fisherman’s Wharf - San-Fransisko, Kaliforniya, AQSh. Bu joy tarixan baliqchilik bilan shug’ullanuvchi italiyalik muhojirlar yashagan hudud bo’lgan. Nom ularning kasbini eslatib turish uchun saqlanib qolgan.[8:89-92]

Shepherd’s Bush - G’arbiy London, Angliya. Bu nom uning tarixiy ahamiyatiga bog’liq. Bu joy o’tmishda cho’ponlar uchun boqish hududi sifatida xizmat qilgan. “Bush” so’zi bu yerning tabiiy va o’rmonli xususiyatlarini anglatadi, “Shepherd” esa hududda cho’ponlarning ishlashini bildiradi. Bu nom 16-asrda qayd etilgan bo’lib, ushbu hudud cho’ponlar va qo’ylar uchun asosiy o’tloq maydonlaridan biri bo’lgan. [9:65-70]

Minersville - Pensilvaniya, AQSh. Minersville nomi ushbu hududda ko’mir qazib olish sanoati rivojlanganligi va ko’pchilik aholining konchilar bo’lganligi bilan bog’liq.[10:125-128]

Portsmouth - Nyu-Gempshir, AQSh. “Parts mouth” nomi port shahri sifatida uning rolini aks ettiradi. Bu yerda kemasozlik, baliqchilik va savdo kasblari asosiy o’rin tutgan.

Carpenter - Janubi-Sharqiy Vayoming, AQSh. Bu hudud nomi temir yo’l va aholi punktlarini qurishda muhim rol o’ynagan duradgorlar(carpenters) sharafiga qo’yilgan.

O’zbekiston va ingliz tilida so’zlashuvchi davlatlar (masalan, Angliya va AQSh) joy nomlarining kasb-hunar bilan bog’liqligi ularning tarixiy, madaniy va iqtisodiy xususiyatlarini ochib beradi. Har ikkala mintaqa uchun ham joy nomlari mahalliy aholi faoliyatining aksidir, biroq bu nomlar shakllanishi va mazmunida ba’zi farqlar mavjud:

1.Tarixiy kontekst:

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O‘zbekistonda joy nomlari ko‘pincha qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikka asoslangan. Bu O‘zbekistonning qadimiy dehqonchilik markazi sifatida rivojlanganligi bilan bog‘liq. Ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlarda esa ko‘proq konchilik, dengizchilik va sanoat faoliyati bilan bog‘liq joy nomlari uchraydi.

2. Linguistik shakllanishi:

O‘zbek tilida joy nomlari aniq kasb-hunar nomlari bilan bog‘lanib, ma‘nosi darhol tushunarli (masalan, Temirchi va Misgaron).

Ingliz tilida esa joy nomlari ko‘pincha o‘sha kasbni bilvosita anglatuvchi iboralar yoki tarixiy shaxslar nomi bilan bog‘liq (masalan, Smithfield va Bakersfield)

3. Geografik moslashuv:

O‘zbekistonning joy nomlari asosan yerga ishlov berish va qishloq xo‘jaligiga moslashgan. Ingliz tilida so‘zlovchi davlatlarning joy nomlari ko‘pincha dengiz va tog‘ manzaralari bilan bog‘langan.

Kasb-hunar nomlariga asoslangan joy nomlari xalqning tarixi, madaniyati va iqtisodiy hayotini o‘zida aks ettiruvchi qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu nomlar insonlarning kasbiy faoliyati va yashash joylari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib beradi. Masalan, dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik yoki hunarmandchilik bilan shug‘ullangan hududlar o‘z kasblari nomiga ega bo‘lib, bu nafaqat hududning o‘ziga xosligini belgilab, balki ularning iqtisodiy hayotida qaysi soha ustuvor bo‘lganligini ham ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, bunday nomlarni tadqiq qilish joy nomlarining lingvistik, madaniy va iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq anglashga turtki beradi. Ular mahalliy va xalqaro miqyosda o‘ziga xos madaniy merosning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy-geografik tavsifi”//O‘zbekiston Respublikasi Geografiya jamiyati nashri, 2015 – 98-104 b.
2. Islomov S. “Dehqonobod tumani iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy holati”//Geografiya va tabiat resurslari jurnali, 2021 – 75-80 b.
3. Karimov A. “O‘zbekistonning yer resurslari va qishloq xo‘jaligi”//Toshkent 2018 – 120-125 b.
4. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”//Toshkent 2004 – 220-223 b.
5. Qodirov M. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarixi”//Toshkent 2012 – 45-50 b.
6. Ashton T. S. “The industrial revolution in England”//Oxford: Oxford University Press, 1948 – P. 150-155
7. Bentley D. “London’s local history handbook”//London: Historical Publications, 2010 – P. 32-35
8. Coe N., Jones A. “Economic geography of the UK”//London: Routledge, 2010 – P. 89-92
9. Hartwell C. “Cheshire: Its history and Architecture”//Yale University Press, 2012 – P. 65-70
10. Mills A. D. “The place names of England and Wales”//Oxford: Oxford University Press, 2003 – P. 125-128